



ADABIYOT DARSLARIDA “SADDI ISKANDARIY” DOSTONINI O’QITISHINING SAMARADOR USULLARI

Xayrullayeva Sharofat Sayfullayevna

O‘zbekiston – Finlandiya pedagogika instituti
O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 2-bosqich magistranti
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7875004>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 20-april 2023 yil
Ma’qullandi: 24-april 2023 yil
Nashr qilindi: 28-april 2023 yil

KEY WORDS

*“Saddi Iskandariy” dostoni,
Blum taksonomiyasi, kognitiv
yo‘nalish, affektiv yo‘nalish,
timsol, muammoli savol.*

ABSTRACT

Ushbu maqolada o‘qitish jarayonida tushinishning ko‘p bosqichli tizimi ahamiyati, “Saddi Iskandariy” dostoni va uning maktab darsligida berilish tartibi, o‘qitishning samarali usullari haqida mulohazalar bayon etiladi.

Mamlakatimiz istiqbolga erishgach, ta’lim sohasida tub o‘zgarishlar ro‘y berdi. Barkamol avlod tarbiyasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Har tomonlama yetuk, mukammal va komil insonni tarbiyalash, qalbida yuksak insoniy fazilatlarini kamol toptirish uchun, avvalo, uzluksiz ta’lim tizimida tub islohatlarni amalga oshirish zarur edi. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” va “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunning qabul qilinishi davlat ta’lim standartlari, o‘quv dasturlari hamda boshqa metodik vositalarni yana-da takomillashtirishni taqozo etib, ta’limni sifat jihatdan yangilashni talab qilmoqda. Ta’lim haqidagi, yoshlar siyosati borasidagi qonunlar maktab va maktabgacha muassasalar bo‘yicha hukumat ko‘rsatmalari, qarorlar va ularni amalga oshirish borasida muayyan muvaffaqiyatlarni ham qo‘lga kiritib kelmoqda.

Adabiyot o‘quvchi shaxsiyatiga ruhiy poklik, ma’naviy yuksaklik sifatlarini tarbiyalashda asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Mustaqillik yillarida adabiyot bo‘yicha DTS hamda o‘quv dasturlari ishlab chiqilib, bir necha bor takomillashtirildi, darsliklarning bir necha avlodi chop etildi. Badiiy adabiyotga yuksak baho berilar ekan, adabiy ta’limni yanada jonlantirish, yosh avlod qalbida so‘z san’atiga mehr-muhabbat tuyg‘ularini kamol toptirish, nafosat va go‘zallikka shaydolikni uyg‘otish g‘oyatda muhimdir. Uzluksiz ta’lim tizimi dastur va darsliklarida o‘zbek mumtoz adabiyotiga alohida e’tibor berilgan. Ko‘pgina mumtoz adabiyot namoyondalari qatori Alisher Navoiy hayoti va ijodiy faoliyatiga alohida o‘rin ajratilgan. Alisher Navoiy hayoti va ijodiga umumta’lim maktablari dasturining 5-sinfidan boshlab, har bir sinf bosqichida dars soatlari ajratilgan. Ularda shoirning lirik asarlari bilan bir qatorda “Xamsa” kompozitsiyasi tarkibidagi dostonlardan parchalar keltirilgan. Jumladan, Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostoni ham maktab darsligidan joy olgan. “Xamsa” tarkibida hajm jihatdan eng katta va tuzilishi jihatidan murakkab doston sanaladi. Shuningdek “Xamsa” yagona kompozitsion birlik sanaladigan bo‘lsa xulosaviy qismidan ayni shu doston o‘rin olgan. Bu jihati ham doston badiiy-g‘oyasiga salmoqli vazifa yuklaydi. Doston matnining

bugungi kungacha turli jihatlarini o'rganilgan. Dastlabki munosib tahlillar Y.E.Bertels, A.Qayumov, M.Hamidova, H.To'ran, va N.Komilov tadqiqotlarida ko'rinadi. Y.E.Bertels ko'proq doston genezisiga e'tibor qaratgan. Ularning ishlarida doston maxsus tadqiq qilingan va talqindan ko'ra ko'proq tahlilga ahamiyat berilgan. Tahlil o'rganilayotgan matnni qismlarga bo'lib, qonun va qoidalar asosida sentiz va analiz qilish jarayoni. Talqin esa matnning ma'no yo'nalishi, badiiy-estetik g'oyasi ifodasiga qaratilgan jarayon. Ammo ular o'z navbatida uzviy bog'liq "Tadqiqotlarida o'tgan asrlarda ko'proq tahlilga e'tibor qaratilishining boisi o'sha davr mafkurasining ta'siri bo'lib, u faqat badiiy asarga o'z yo'nalishiga mos yagona talqinni tadbiiq etgan va tahlil o'sha doira ichida olib borilgan"¹deya ta'kidlanadi. Mustaqilligimiz sharofati bilan doston doirasidagi keyingi tahlillar doston badiiy g'oyasiga yo'naltiruvchi munosib talqinlar bilan boyidi. Bu yo'ldagi tadqiqotlarning ibtidosi sifatida dostonni "hikmat va ibrat" dostoni deya tavsiflagan N.Komilov talqinlarini ayta olamiz. Doston kompozitsion qurilishi vobastaligi asosida falsafiy-irfoniy, so'fiyona talqin etilgan. Bugungi kunda ham "Saddi Iskandariy" talqini yuzasidan salmoqli ishlar olib borilmoqda va quyidagi e'tirof ham o'rinliki "Ularning barchasi Najmiddin Komilov talqinlariga suyanadi. Olim xamsashunoslikka o'z maktabini yaratdi, o'zining tahlil va talqinlari bilan navoiyshunoslikda yangi o'zanning paydo bo'lishiga va albatta, navoiyshunoslikning ilgarilashiga muhim hissa qo'shdi."² Darhaqiqat olim doston tadqiqotchilar tomonidan o'rganilganligi "Ammo mavjud tadqiqotlarda ushbu asarning irfoniy-falsafiy jihati chetlab o'tiladi. Holbuki, Navoiy badiiy tafakkurining teranligi aynan shu nuqtada bo'rtib ko'zga tashlanadi"³deya yozadi. Talqin mobaynida asarning zohiriy va botiniy ma'nolari omuxtalikda kashf etila boradi. Olim Iskandar sujet va nazariy-falsafiy qismlar vositasida dostonda "agar shohning qalbida adl-u insof, ilm-u hikmat jo'sh ursa, u jahongir bo'lsa ham, u darvesh(vali) martabasiga muyassar bo'lishi mumkin"⁴, Navoiy va bugungi kun o'quvchisi qarshisida zamon-vaqt bilan bog'liq to'siq paydo bo'lganki, bunda o'qituvchi o'qitish mahorati orqali ko'priki bo'la oladi. Vaqt til, tarix, madaniyat kabi ijtimoiy hayotga oid tafovutlarga olib kelgan, lekin azaliy va abadiy insonni anglash va ezgulikka doir qarashlar yoritilgan mavzular o'quvchi ko'ngliga doimo yaqin. . Adabiyot darslarida tahlil ham, talqin ham eng avvalo, qalb va hissiyotlar bilan bog'lanishi, ko'tarilgan mavzu o'quvchini zavqlantirishi lozim. Kundalik hayotimizda ham hissiyotlarimizga ta'sir etgan voqealar xotiramizda yaxshi o'rnashadi. Shunda ta'lim va tarbiya uyg'unligiga erishgan bo'lamiz. Bu uyg'unlik bugungi kunda mukammal ishlab chiqilgan bilish va his etishning bosqichlarini qamrab olgan Blum taksonomiyasidan foydalanib samarali dars tashkil etish mumkin. 1956-yilda amerikalik olim Blum tomonidan ishlab chiqilgan taksonomiya ya'ni bilish yo'nalishi bosqichlari va anglash orqali affektiv - his etishga yo'nalishni anglatadi. "Blum taksonomiyasi o'qituvchi tomonidan tarbiyalanuvchilar oldiga qo'yiladigan qator topshiriqlarni ta'lim maqsadlariga muvofiq tarzda : kognitiv, affektiv, psixomotor yo'nalishlarida tasniflashni nazarda tutadi. Ta'limning bu yo'nalishini oddiyoq qilib "bilaman", "his qilaman va yarataman" so'zlari bilan ifodalash mumkin."⁵Asar matnini idrok etish orqaligina ma'naviy zavq tuyish mumkin. Shaki va mazmunda keng ko'lamli Alisher Navoiy ijodi, xususan, "Saddi

¹ Erkinov A. Alisher Navoiy "Xamsa"si talqini manbaalari. – T.: Tamaddun. 2018. 18-bet.

² Mullaxo'jayeva K. Temuriylar davrida yaratilgan "Xamsa"larning komparativistik tadqiqi va ularning Sharq adabiyoti taraqqiyotidagi o'rni. – S.: 2020 .214-bet.

³ Komilov.N. Xizr chashmasi. – T.: Ma'naviyat. 2005. 124-bet

⁴ Komilov.N. Xizr chashmasi. – T.:Ma'naviyat. 2005.125-bet.

⁵ Husanboyeva Q, Niyozmetova R. Adabiyot o'qitish metodikasi. – T .: 2018. 211-bet.

Iskandariy” dostonining o’qitilishda ko’p bosqichli tizim o’quvchini asarni yuzaki o’qib, xulosalar qilishdan saqlabgina qolmay bilishning eng yuqori bosqichlari darajasida bilish, tushinish, qo’llash, tahlillash va baholashni qamrab oladi.

O’quvchining matnni bilishi, anglashi bilan kechadigan birinchi jarayoni “kognitiv ta’lim bilimlarni o’zlashtirish va o’zlashtirilgan axborotni amaliyotda qo’llay olishni nazarda tutadi” va o’z navbatida matndagi axborotni qabul qilish 5 bosqichda amalga oshadi: bilish, tushunish, qo’llash, tahlillash, umumlashtirish va baholash. Yuqorida keltirilganidek doston chuqur falsafiy-irfoniy qarashlar zahirida qurilgan. Dostondan parcha o’rta ta’lim muassasalarining 11-sinfi va o’rta-maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarining o’quvchilari uchun darslik majmua sifatida tashkil etilgan Adabiyot darsligining 1-qismida keltirilgan. Alisher Navoiy hayoti va ijodini, dostonni o’rganishga 6 soat ajratilgan.

Dastlabki 1 soat Xondamirning “Makorim ul-ahloq” asaridan Navoiy hayoti va ijodiga oid lavhalar bilan tanishiladi. Keyingi soatlarda doston parchasi bilan ishlashga oid nazariy va amaliy ko’nikmalar hosil etiladi. Mavzular shunga muvofiq “Saddi Iskandariy” dostonining ma’rifiy va adabiy ahamiyati, poetic xususiyatlari, Iskandarning adolatli hukmdor sifatidagi qarashlari tarzida shakllantirilgan. Maqola ajratilgan soatlarda Navoiy hayoti, ijodi va doston parchasining o’qitilishi samarador usullarini qo’llashga doir fikrlar bayon qilingan. Shuning mobaynida doston talqini yuzasidan ba’zi takliflar ham havola etilgan. Dostondan parcha Iskandarning Kashmir safari bilan bog’liq XXXIX bobi va uning mantiqiy davomi tarzida keyingi boblarda kelgan nazariy-falsafiy qism, hikoyat va hikmat o’rin olgan. Sarguzashtdan keyin keluvchi bu kabi boblarda Navoiyning olam va odam haqidagi mushohadalari ifodalangan. Doston badiiy-g’oyasi tushunilishi Iskandar voqealari bilan ijodkor mushohadalarining bog’liqlik jihatlarini anglash bilan birga kechadi. Dostonning tarixiy so’z bilan bog’liq murakkabliklari lug’at vositasida yechiladi, ammo buning o’zi matnni to’la tushunishga yetarli emas. Matn tushunilishi bilan bog’liq bu murakkab jarayonni bilish va his etish jarayonining ko’p bosqichli amaliyoti orqali o’quvchida shakllantirish maqsadga muvofiq bo’ladi.

Bilish jarayonida o’quvchilar matn doirasidagi “atama, dalillar, metodlar, asosiy tushunchalar, qoida va tamoyillarni bilishi” lozim bo’ladi. Dostonga tatbiq etadigan bo’lsak, ramziy qo’llanilgan so’zlarni mohiyatiga tushunish va berilgan parcha miqyosida sujet va kompozitsiyani o’rganish, ijodkor hayoti va ijodiga oid lavhalardan ijodkor shaxsiyati, dunyoqarashi va asar yaratish uslubi kabi jihatlarini bilishni qamrab oladi.

Matnning ma’no-mohiyati anglanilishida tadqiqotchi “so’zdan fikrga, fikrdan tuyg’uga o’zicha bir sayohat qiladi, obrazli tasvirlarga alohida diqqat ila qaraydi”⁶ Xususan, dostonida ifodalangan ramziy timsollar haqida tushuncha hosil etish o’quvchini mohiyat sari yetaklaydi. Aks holda “Farhod va Shirin”da aks etgan dev, ajdarho, temir paykar, sher kabi yoki “Saddi Iskandariy” dostonidagi jom, tilsim, oina, sehr ahli kabilar ertak qahramonlaridek tasavvur uyg’otadi. Ramziy timsollarga oid nazariy ma’lumotlarning darslikdagi qisqacha ta’riflari o’quvchi asar mohiyatini anglashida vosita bo’ladi. Xususan, dostonidan keltirilgan parchada Iskandar sehr ahli bilan kurashadi, tilismni yengadi va jomga ega bo’ladi. Doston sujetini keyingi qismlarida Iskandar oinaga ega bo’ladi, o’zi ham olimlar yordamida ko’zgu yasattiradi.

⁶ Haqqulov.I. Taqdir va tafakkur. – T.: “Sharq” 2007.285-bet.

Salaflaridan farqli ravishda ko'zguni tilsimli ekanligiga urg'u beradi. Irfoniy istilohlar lug'atlarida ham ko'zguga quyidagicha izoh berilgan:

"Oyna – xoslarning sayqallangan jismidir. Zavq ahli so'zlarida oynadan maqsad zohir bo'luvchi makon sababidan Komil Inson qalbidir. Zero zot, sifat asmo(ismlar)ni oyna deyishadi va bu ma'nolar Komil Insonda, ya'ni butun mazhariyatga ega bo'lgan Komil insonda namoyon bo'ladi."⁷

Ibrohim Haqqul "So'z va tasvir go'zalligining 1-sharti ruhni zavqlantirish, ma'no va mohiyatini ruhoniy idrok obyektiga aylantira borishdir" deydi. Yuqoridagi kabi timsollarning mohiyati ijodkor mushohadalarini anglashga yo'naltiradi. Blum taksonomiyasining bilish bosqichida o'quvchilarga Iskandar sarguzasht qismida keltirilgan Jom motivi Navoiy ijodida ko'p qo'llanuvchi timsol ekanligi va u inson ezgu qalbga ishora etishini baytlar misolida ta'riflash lozim. Darslikda ham shu haqida nazariy ma'lumot berilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi. Chunki mumtoz adabiyotimiz, xususan, Navoiy ijodini timsol talqinisiz tushinish mushkul.

Timsol – misol, tushuntirish uchun shartli olingan, majoziy va ramziy ko'chma ma'noda qo'llanib obrazning xususiyatlarni, qirralarini ochib berishga xizmat qiladigan vosita. Majoz va ramz ko'chim turlaridan hisoblanib, ayni qo'llangan matn doirasida amal qiladi. Ko'chimda so'zlar orasida o'xshatish yoki ichki aloqadorlik asosidagi bo'g'liqlik yotadi. Bu tashbehning yillar davomida sayqallanib an'anaviy tarzda bir tushunchani nomlab kelishi natijasida u shu tushuncha doirasida timsolga aylanadi. Timsollar she'riyatda azaldan foydalanib kelinayotgan tashbehga tayanishi sabadan timsol va u ishora qilib kelgan ma'no o'rtasida o'xshashlik yotadi. Ishqning mayga o'xshash jihatlarini o'zining "Lavomi" kitobida ko'rsatgan Jomiy ularning o'xshash xususiyatini sanab o'tadi. Yoki ko'ngil timsoli bo'lib kelgan Jom ishq-may quyiladigan o'rin sifatida musaffo qalbga ramziy ishora qilib keladi. Shu tariqa timsol – obrazning ko'zga ko'rinmas, eng nozik jihatlarini xayolda va tasavvurda jonlantiradi. Yoki dostongi parchada ta'rifi keltirilgan, Iskandar kurashgan sehr-jodu ahli va tilsim inson botinida mavjud yomon axloqlarning ifodasi va ular bilan kurashdan jom, ya'ni ezgu qalbga ega bo'lishi kabi talqinlar o'quvchini fikrlashga, har bir inson fitratida mavjud ezgulik tuyg'ularini uyg'otishga sabab bo'ladi. Bugungi kun o'quvchisini o'z yengilgan dushmanini afv etib taxtini qaytarishga chog'langan, ammo tolei sabab vafot etgach o'g'li Feruzga taqdim etgan yoki qizi Nozmehrni sevimli malikasi aylashi kabi voqealar tizimiga ishontirish qiyin. Ammo shunday fazilatlariga ega komillik yerda mavjudligi, ayni asarda aks etgan mushohadalar aslida ijodkor olami, ruhida mavjudligi hususidagi qarashlar bilan bog'lash o'quvchini asarga befarq qoldirmaydi. "Ma'lumki, biror badiiy matnni o'rganishda o'quvchi muallifning tabiati, qiziqishlari, hayoti haqida qancha ko'p ma'lumotlarga ega bo'lsa, uning asarni o'rganishi shuncha mukammal bo'ladi. Ayniqsa, asar muallifi bilan o'quvchi shaxsiyatida, xarakterida o'xshashlik jihatlar kashf etilsa, tarbiyalanuvchi shaxsida yozuvchi shaxsiga muhabbat paydo bo'ladi."⁸ Darslikda Navoiy hayoti va ijodi bilan bog'liq ma'lumotlar Xondamirning "Makorim ul-axloq" dan olingan. Zamondoshi tilidan keltirilgan fikrlar o'quvchida Navoiy dahosi buyukligiga ishonch tuyg'usini oshiradi. Asarda bayon qilingan

⁷ Sayyid Jafar Sajjodiy. *Irfoniy istilohlar va iboralar lug'ati*.

⁸ Husanboyeva Q, Niyozmetova R. *Adabiyot o'qitish metodikasi*. – T.: 2018. 214-bet.

ijodkorning mukarram xulqlari, fazilatlari doston bilan umumlashtirilib o'xshash jihatlar muqoyasa qilinsa o'quvchida taksanomiyaning tushunish bosqichi shakllana boshlaydi. Ya'ni ramziy timsollar mohiyati, sujetda aks etgan voqealar tizimini bilgan, ijodkor shaxsiyati bilan tanishgan o'quvchi asar mohiyatini tushina boshlaydi. Bu jarayonda uning o'zi ba'zi masalalarni fikrlay oladi. Shu o'rinda o'quvchiga bir qator topshiriqlar bilan murojaat qilish ularning bilimini yanada mustahkamlaydi. Xususan, "Makorim ul-axloq" da Navoiy shaxsiyatiga oid o'rinlarni toping yoki Xondamir tasviri va sizning tasavvuringizdagi Navoiy siymosidagi o'xshash va farqli jihatlarni taqqoslang kabi topshiriqlardan so'ng o'quvchida ijodkor dunyoqarashi haqidagi bilimlar saralanadi. Shundan keyin doston bilan bog'liq quyidagi muammoli savollar bilan murojaat etishimiz mumkin: Navoiyning "saodatli kelajagi alomatlari" dastlab nimalarda aks etgan? degan savolga javob axtarish davomida o'quvchi Navoiyning bolalik chog'laridayoq ilmga oshno bo'lishi, umrni g'animat bilishi kabi xulosalar chiqarishga undaydi. Bu jihatlar dostonidan keltirilgan "yoshlikda binafshadek belni mehnat va toatga bo'yin qo'yimoq zarurligi" haqidagi nazariy qism, yoshligida ilm egallamay vaqtini behuda isrof etgan "g'ofil yigit" haqidagi hikoyat va inson yoshlikda nega mehnatdan, ibodatdan, o'rganishdan bo'yin tovlashi haqidagi sarlavhalaridayoq umumiy jihatlari ko'zga tashlangan boblar bilan ijodkor shaxsiyati sentizlashadi. Quyida Ibrohim Haqqulning ijodkor ijodini anglash xususidagi e'tirofi ham shunga daxldor "Endi u she'rdan shoir shaxsiyatini kashf etishga, shoirning ichki kechinmalarini, ayniqsa, din, falsafa, tarix bilan bog'lanishini aniqlashga intiladi. Natijada, she'riy matn go'yoki tilga kiradi va tadqiqotchiga parda" ortidagi g'oyaviy-badiiy haqiqatlarni oshkor qiladi"⁹ Yoki o'z zamondoshi, yaqin kishisi tomonidan berilgan ta'riflar ham o'quvchida komil inson fazilatlari to'g'risida katta taassurot qoldiradi. Jumladan, "...Hidoyatga erishgan Amirning bolalik chog'laridan umrining oxirlarigacha o'z barakali vaqtining ko'p qismini ilm egallash va kamolotga erishish ishiga sarflab, bir lahza bo'lsa-da turli bilimlarni o'rganish va har xil ko'nikmalarni egallashdan tinmadi." Dostonda Iskandarning ilm egallashga bo'lgan ishtiyoqi shu maqsadda yer usti va suv dunyosini o'rganishga safar qilganligi, ustozlari haqidagi muqoyasalar ijodkor va ijodining bog'liqlik jihatlarini kashf etishga mezon bo'ladi. Taksonomiyaning asar tushunish bosqichi ham o'z navbatida mustahkamlanadi. Yoki Navoiy hayotiga oid "Hikoyat"da keltirilgan chumoli voqeasining tahlili davomida ko'nglimni "o'zim bilmagan holda Xudoning bir jonivoriga "jabr zulm qilib qo'yish xavotiridan xalos qildim" degan e'tirofi shoirning iffatli qalbi va Iskandarning adolat, himmat, afv kabi fazilatlar to'la ezgu qalbiga ishora qiladi. Iskandar dostoni haqidagi sujetning umumiy mazmuni bayon etilgan qismda Doroning yengilishi va shartlari bilan bog'liq voqealar tizimiga "chumoli hikoyasi"ni anglagan o'quvchi ishonadi. Tarixdan yaxshi ma'lumki, yengilgan podshohlarning joni, moli, ahli talangan. Ammo Iskandarning Doro tepasiga borishi, unga suiqasd qilganlarni jazolash, qavm-qarindoshlariga zulm qilmaslik, qizi Ravshanakni o'z xonadoning munavvar shamiga aylantirish shartlarini qabul qilishi kabilardan o'quvchi affektiv yo'nalishni shakllantiradi. Ya'ni dostonni ramziy timsollar, ijodkor shaxsiyati orqali tushungan o'quvchi Iskandar obrazi orqali – komil insonni anglay boshlanadi. Iskandarga bir maxfiy xat topshirishi, unda Doroni o'ldirishga qasd qilgan

⁹ Haqqulov.I. Taqdir va tafakkur. – T.: "Sharq" 2007.285-bet.

ikki sipohiyning arznomasi bitilganligi va Iskandarning maktubga javob qaytarmay jim qolishni ma'qul ko'rishi kabi jihatlar ham aslida muhokamali o'rinlar. Fitnaga qo'shilmaslik hukmi orqali obrazning mardlik, chin insoniylik kabi nozik jihatlarini anglanadi. Shu kabi har bir taksonomiyaning kognitiv yo'nalishdan hosil bo'lgan bilimlar o'quvchi hissiyotlariga ham ta'sir etib, affektiv yo'nalishga yo'naltirilishi lozim bo'ladi.

Blum taksonomiyasida "tushunishning asosiy belgisi voqea va hodisalarni keyingi bosqichini tasavvur qila olishdan iboratdir". Dostonni yuqoridagi bog'liqliklar asosida tushungan o'quvchida dostonning keyingi voqealari tizimida Iskandarning faoliyati qay yo'sinda ekanligi xususida taxminiy bo'lsada fikrlar uyg'onadi.

Shundan so'ng keyingi kognitiv yo'nalishning uchinchi turi "qo'llashda o'quvchilarning o'rgangan qonuniyat va nazariyalarni aniq amaliy vaziyatlarga tadbiiq eta olishi, tushuncha va tamoyillarni har xil vaziyatlarga tadbiiq etishiga qodirligi ahamiyat kasb etadi"¹⁰ Bunda o'quvchi mavjud bilimlarga tayanib, doston miqyosida sujet qismlari, obrazli tasvirlar, yoki ijodkorning boshqa asarlari tahliliga doir talqinlar qila oladi. Xususan, Maktab darsligida keltirilgan dostonlardan parchada ayni Kashmir shohi Malu ibn Mabok va tilism bilan bog'liq jarayonlar aks etgan. Mazkur bobda Kashmir shohi yel bilan o'tni o'g'irlashi va undan xalqqa aziyat yetishgani, yurt hech bir tirik jon o't va yelsiz jon saqlay olmay qolgani xususida aytiladi. Bu tilsimni yechish vazifasi esa Aflotunga topshiriladi. Iskandarning shaxsi shakllanishida, asosan, uchta pir turadi. Ulardan biri Aflotun hisoblanadi, ammo u ham bu borada Iskandarning o'zini kuchiga tayanadi. Bular haqida Jomosb hakimning bashoratgo'y ahkomida ham aytib o'tilgan bo'ladi.

Yagona talqin o'quvchi fikrlarini chegaralab qo'yishi mumkin. Yuqorida aytilganidek talqinlar birinchi navbatda, ijodkor ichki olami, tuyg'ulariga yaqinlik, ruhiyat va dunyoqarash uyg'unlik bilan bog'liq jarayon. Shunday ekan har bir o'quvchi to'g'ri yo'naltirilsa ijodkor badiiy-g'oyasiga yaqin kelgan talqinlarni bera olishi mumkin. Bu haqida adabiyotshunos Qozoqboy Yo'ldoshev quyidagilarni ta'kidlaydi: "Maktab adabiyotshunosligi, avval boshdan, avtoritar va dogmatik ko'rinishga ega. O'qituvchilar ham, o'quvchilar ham badiiy asarni keragiday tushinishga doimo majbur qilinganlar va shu yo'l bilan ularda san'at asariga jonli, individual yondashuv yo'qotib kelingan".¹¹ O'quvchi talqinda chalg'imasligi uchun o'qituvchi dostonning badiiy-g'oyasiga yo'naltiruvchi barcha vositalarni tahlilga tortishi lozim. Yuqoridagi kabi ijodni ijodkor shaxsi bilan bog'lash yoki dostonda aks etgan timsollar mohiyatiga yo'naltirilgan tahlillar kabi. "Badiiy asarning mazmuniy asoslari ko'pgina hollarda mazmunning subyektiv tomonida yotadi. Bu jihatni ko'zda tutish, ayniqsa, maktab adabiy ta'limi uchun muhimdir. Negaki, bu yerda vaqt va kuchning juda katta qismi deyarli bekorga mavzu talqiniga sarflanadi."

Qo'llash bosqichida Iskandar sarguzashtida kelgan voqealar bayonida ayonlashgan zohiriy ma'nolarda ijodkor qanday fikrlarni ilgari surayotgani ya'ni botiniy ma'nolari haqida

¹⁰ Husanboyeva Q, Niyozmetova R. Adabiyot o'qitish metodikasi. – T.: 2018. 213-bet.

¹¹ Yo'ldoshev. Q. Yo'ldosheva M. Badiiy tahlil asoslari. – T.: 2016. 220-bet.

fikrlashga yo'naltirish lozim. Bu bosqichgacha shakllangan mavjud bilimlar o'quvchiga talqin uchun turtki bo'ladi. Darslikda sarguzasht qism nasriy bayonidan so'ng bir qator shu mavzuga oid savollar keltirilgan. Ularning bir qanchasiga o'quvchi mustaqil va ba'zilariga o'qituvchi ko'magida javob bera oladi. Xususan, Iskandar va raiyatning munosabati, yoki shahzoda Feruz shaxsiyati asliy yoki nasriy matndagi o'rinlarini topib sharhlanishi mumkin. Lekin "Bobda fantastik va hayotiy voqea-hodisalar tasviri ham mavjud. Navoiy ularda qanday badiiy maqsadlarni ko'zda tutgan?", "Aflotun boshliq olimlarning Mallu boshliq sehr-u joduchilar ustidan qozonilgan g'alaba bilan Navoiy qanday badiiy-g'oyaviy niyatni nazarda tutgan?" kabi savollar ham borki, ularga javoblar turlicha bo'lishi mumkin, ammo adabiyotshunos tahlili asosli talqinligi sababidan, yuqoridagi kabi murakkab jarayonlar izohi keltirilgan talqinlar o'qituvchi uchun ham darslikka kiritilsa yoki talqinga doir adabiyotlar ro'yhati havola qilinsa maqsadga muvofiq bo'lar edi. Yo'qsa yuqoridagi kabi savollar ochiq qoladi, yoki yuzaki va asossiz talqinlar bilan tushinilib ketiladi.

Badiiy matn tahlili va tadqiqi shuni tasdiqlaydiki Mir Alisher Navoiy fikrlarini shunchaki bayon qilmay, ularning tasdig'i uchun asosli dalillar keltirish yo'lidan boradi. Shoir ko'pincha ibtido haqida so'z yuritadi. Xususan, ibtido va intiho bilimdoni (Tangri) inson jismi (ajoyib tilsim)ni shakllantirar ekan, buyuk san'atkorligini namoyon etadi. Navoiyning talqinicha, inson tilsim sandig'i: odam (vujud va ruh)-aql-sirlar xazinasi ya'ni ko'ngildan iborat. Shoir aqlni botindagi sirli odam shaklida idrok etadi. Chunki, sirlar xazinasi aynan uning botiniga berkitilgan. Qatrada dengiz, mitti yulduzda osmon, inson botinida aql va xazina berkitilishi va insoniylik mohiyati aynan unda aks etishi, ularning zohiriy nigohdan pinhon saqlanishi Tangriining beaddad qudrat-hikmati nishonasidir. Ammo o'shanday samoviy tiniqlik, so'nmas nur maskani deb tasavvur qilinuvchi dil haqiqatiga yetish uchun odam bolasi aynan jism va ruhiyatni poklashi, yuksaltirishi zarur. Navoiy yuqoridagi mushohadalarini talqini Farhod va Iskandar dostonlarida timsollar vositasida ifodalanadi. Chunki ular maqsadiga olib boradigan yo'l – irfon yo'li o'xshash. Darslikda aks etgan yuqoridagi misralar mazmuni mohiyatga ishora etuvchi ramzlar orqali talqin etilsagina o'quvchi dostonni to'g'ri anglaydi. Sarguzasht qismida keltirilgan "tilsim" va "lavh" ga doir ifodalar Farhod haqidagi dostonida ham aks etgan o'rinlarni muqoyasasi ham to'g'ri talqin sari yo'naltiradi. "Asarning mazmuniy asoslarini to'g'ri tayin etishda ular alohida badiiy usul va vositalardan emas, balki asarning butunligini ta'minlovchi umumiyroq badiiy tamoyillar, tashkiliy parametrlardan iborat bo'lishi mumkinligi hisobga olinishi lozim."¹² Iskandarning tilismni yechish bilan bog'liq jarayonlari Aflotun tilidan "Jomosob ahkomi"da bitilgandek bayon etiladi va Iskandar ham bir qadam adashmay o'zi lavhlarni tepishi lozim topiladi: "Chu o'n yeti gom urdi qilmay guzar" ishtiroki ham diqqatni tortadi.

Misralarda tasvirlangan "lavh" bilan bog'liq talqinning Navoiy ijodida aks etgan o'rinlarni qiyosiy o'rganish ijodkor uslubining o'ziga xos jihatlarni aks ettiradi. "Farhod va Shirin" dostonida ham lavh bilan bog'liq jihatlar aks etgan va ularning qulashi tilism sari yo'l ochgan.

Chu to'qquz yuz qadam ursa yurub tuz,
Yo'l uzra taxtasange ko'rguzur yuz.
Anga chiqqoch kishikim tepsa mahkam,
Ochilur qal'aning darbandi ul dam

¹² Yo'ldoshev.Q, Yo'ldosheva M. Badiiy tahlil asoslari. – T.: 222-bet.

Xizr Farhodga ta'lim beradi va "Farhod temir paykar ko'ksini nishonga olib, o'q otadi va ko'zgu sinib, haligi maxluq yonib nobud bo'ladi. Shunday qilib, Farhod Suqrot dargohiga Musharraf bo'lishidan oldin anoniyat belgilari – nafs, davlat va boylik hirs, g'azab, ro'yo-yolg'on qutqularini bartaraf etadi, uning ko'ngil ko'zgusi dunyo ishq, g'uboridan toza bo'ldi."¹³ Dostonda tilismning yechilishi borasida Iskandarning jonbozligi, tashabbusi va bevosita ishtiroki ham diqqatni tortadi. Shu tariqa Navoiy uslubini anglagan o'qituvchi ikki dostonning o'xshash jihatlaridan kelib chiqib ham parchaning falsafiy-ijtimoiy talqinini bera olishi mumkin. O'quvchilarga tilism va u orqali tug'yon etgan o't bilan yel nafs va uning qutqulari ekanligi, Farhod singari lavhlarni qulatishi, ularni yengish bilan bog'liq jarayon ekanligi ramziy ifodalanganligi aytilsa Iskandar obrazining hususiyatlari oshkor bo'la boradi. Har bir amalida qalb va aqlni mezon qilgan Iskandarning adolatli hukmdor, raiyat va dushman podsholarga nisbatan cheksiz avfi va adolati kabi jihatlarining sabablari oydinlashadi. Butun dunyo shohi bo'lish o'z ko'nglining podshohi bo'lishdan boshlanadi. Nafs qutqulari, ko'ngil munavvarligi, insonning asl mohiyati va vazifasi kabi mulohazalar dostonni bugungi kun bilan bog'laydi. Iskandar obrazini o'quvchi olamiga yaqinlashtiradi.

Taksonomiyaning qo'llash bosqichida yuqoridagi kabi boshqa bir holatlar bilan muqoyasa qilinishi o'quvchi bilimlarini yuqori saviyaga chiqishiga erishiladi. Bilimlari bu borada yuqori darajaga chiqqan o'quvchida to'rtinchi tahlil jarayoni qiyinchiliksiz amalga oshadi. "Tahlillashda o'quvchilar butunni ma'lum bo'laklarga ajrata olishi, ular orasidagi aloqadorlikni ko'rsata bera olishi, butunni tashkil etish tamoyillarini aniqlash"¹⁴ kabilarni qamrab oladi. Darslikda doston kompozitsiyasi shartli ravishda 4 qismga bo'linishi va ular bir-biriga aloqadorligi xususida fikrlar keltirilgan. Dastlab Iskandar hayoti bilan bog'liq bo'lgan sarguzasht, undan so'ng bu qismda ko'tarilgan mavzuga doir falsafiy-irfoniy qarashlar navbatdagi bobda unga ilova qilingan hikoyat va so'nggida shu xususidagi savol-javoblar tarzida hikmat tarzida o'rin oladi. Banddagi boblar o'zaro bir-birini izohlab, to'ldirib kelishi bilan birga ayni paytda dostonning butun mazmuni bilan ham chambarchas aloqador.

"Saddi Iskandariy" kompozitsiyasi salaflar dostonidan farqliligi ijodkor pozitsiyasi, doston badiiy-estetik g'oyasi bilan bog'liq. Shu sababdan dostonni qiyosiy aspektda o'rgangan I. Ismoilov kompozitsion qurilishni mohiyatni anglashdagi o'rniga yuqori baho beradi: "Saddi Iskandariy" kompozitsiyasini to'g'ri tushunish ijodkor badiiy maqsadi va asar mohiyatini to'g'ri talqin etishda hal qiluvchi ahamiyatga ega"¹⁵

Bandlar kompozitsiyadagi shartli olingan bu qismlarda ko'tarilgan mavzu va uning yoritilishi orqali komillik yo'liga qadam qo'ygan orifning botinidagi tadrijini ko'rishimiz mumkin. Bu to'rt qismning uyushtirilishida qaysi qism asosligi to'g'risida turli xil talqinlar mavjud. Ammo dostonning eng birinchi navbatda Iskandar bilan bog'liqligi jihatidan keyingi nazariy qism, hikoyat va hikmat kabilar mohiyatni turli jarayonlarda kengroq yoritib berishga xizmat qilgan. Ularda ko'proq falsafiy-irfoniy, tasavvufiy qarashlar ifodalangan va Iskandar bilan bog'liq sarguzasht boblari bilan ramziy timsollar vositasida bog'langan. Salaflar iskandarnomalaridan farqli kompozitsiya ijodkor mushohadalarini asarda ifodalashga va Iskandar obrazining yozuvchi maqsad-mudaosidek komil bo'lib shakllanishiga xizmat qilgan. Ayni shu qismlarning bosh umumiy tomonlarini topish o'quvchini dostonning mohiyati tomon

¹³ Komilov N. Tasavvuf. – T.: Movaraunnahr. 2009.

¹⁴ Husanboyeva Q, Niyozmetova R. Adabiyot o'qitish metodikasi. – T.: 2018.

¹⁵ Ismoilov I. Alisher Navoiy "Saddi Iskandariy" dostonining qiyosiy tahlili. Dissertatsiya. – T.: 2019. 60-bet.

yo'naltiradi. "Shu bois o'zi tasvirlagan tarixiy voqelikning mohiyati bilan bog'lash mumkin bo'lgan nazariy qarashlar, hikoyatlar va hikmatlarni asarga kiritishni istagan"¹⁶ Maktab darsligida "Saddi Iskandariy" dostonidan keltirilgan parcha XXXIX bob Iskandarning Kashmirga safari ya'ni sarguzasht qismdan boshlanadi. Keyingi nazariy qism, hikoyat va savol-javob tariqasidagi hikmatlar ham sarguzasht qismda yoritilgan mushohadalarning davomi sifatida mantiqiy davomi hisoblanadi. Shu sababdan bu qismlar ham darslikka kiritilgan va ularning umumiy nuqtalarini topib sharhlash, Iskandar obrazi va doston sujeti bilan bog'lash lozim bo'ladi. Sarguzashtdan keyingi qismlar ichki sarlavhalarning o'zidayoq bog'liqlik ko'zga tashlanadi. Xususan, sarguzashtdan keyingi nazariy-falsafiy qism "Yoshlik yelining sabohati va yigitlik gulzorining tozaligi. Yoshlikning shunday go'zal damlarida quyoshdek yostiqlardan bosh ko'tarib, ochiq chehrani ko'rsatmoq va bu faslda binafshadek belni bukib, mehnat va toatga bo'yin qo'yimoq zarurligi haqida" deb nomlanishi bobning umumiy mazmunidan xabar bermoqda. Hikoyatda yuqoridagi kabi "pir nasihati qadrin bilmagan, ish vaqtidan o'tgandan so'ngra pushaymonlig'i sud qilmagan g'ofil yigit" haqida. Hikmat qismida mavzu davom etib Iskandar Arastudan "yigitlikda tab' nevchun ibodatdin mutanaffirdurur va qarilikqa dimog' taaqquldin qosir" deya so'ragani xususida.

Nedindur anga kome lavhu tarab,
Vara'din nega zohir aylar taab?

Yuqoridagi savol va uning atrofidagi javob uchala qismning bog'lovchi xususiyatini ifodalagan baytlar tahlil etilishi lozim bo'ladi.

Sarguzasht qism bilan bog'liq jihatlarini yoritish va izohlash va Iskandar obrazi fazilatlarini nomoyon etishdagi o'rinlari bilan bog'lash lozim bo'ladi. Yuqoridagi kabi Kashmir safarining tahlili keyingi qismlar bilan bog'lanishda imkon beradi. N.Komilov tabiri bilan aytganda dostonning har bir bobi hikmat egallashga va ogohlikka chorlaydi. Iskandarning yoshlikdan ilm egallashi va har bir amalida shunga muvofiq faoliyat yuritishi parchalarda aks etgan. Jumladan:

Qayu ishni ta'lim qilgan zamon,
Eshitmak hamon erdi – bilmak hamon...

Nazariy-falsafiy qismda ifodalangan fikrlar Iskandar obrazida ijobiy talqinini topishi o'quvchida hayrixohlik tuyg'usini uyg'otadi va ularni shunga yo'naltiradi. Taksonomiyaning umumlashtiruvchi bosqichida o'quvchilar doston badiiy-g'oyasini to'la anglaydilar. Katta hayot ostonasida turgan yoshdagi o'quvchilar hayotda insonning asosiy vazifalaridan biri kamolot hosil qilish, buning uchun esa o'qish-o'rganish lozimligi haqida xulosalar qilishga undaydi. Shuningdek keyingi bosqich baholash bosqichida ichki va tashqi mezonlar asosida baholaydi, mezonlarni ajrata oladi va ularga rioya qila oladi. Mezonlarning xilma-xilligini ko'radi, xulosalarning mavjud ma'lumotlarga mosligini baholay oladi. Bu kabi ko'p bosqichli o'qitish usuli o'quvchida Navoiy asarlarini o'qish ko'nikmasini shakllantiribgina qolmay, mohiyatini anglash darajasiga yetgan tadqiqotchi kitobxon sifatida o'stiradi. O'qituvchi yagona talqinni berishi kerak emas, balki unga yo'naltiruvchi omillar bilan ishlashni o'rgatish lozim. Xulosa va bahoni esa o'quvchining o'zi berishiga erishish, fikrlash tarziga havola etish lozim. Shunda adabiyot o'qituvchilari o'zining asl maqsadiga erishadi, ya'ni Navoiy ijodiga muhabbat uyg'otadi, butun umri davomida unga murojaat etishiga sababchi bo'ladi.

¹⁶ Ismoilov I. Alisher Navoiy "Saddi Iskandariy" dostonining qiyosiy tahlili. Dissertatsiya. – T.:2019.86-bet.

Xalqimizning bu bebaho xazinadan foydalanishi o'qituvchilarimiz mahoratiga bog'liq bo'lgan sharaflı vazifadir. Bugungi kun ta'limi o'z oldiga insonni kamolga toptirish maqsadini oliy vazifa etib belgilagan. "Insonni kamolga yetkazish – avvalo ahloqni kamolga yetkazish, ya'ni ahloq go'zalligiga erishish demak."¹⁷ Navoiy ijodida axloq go'zalligiga yetishning turli yo'llari, na'munalari jonli, obrazli tavsiflangan. Baytlar o'qilishi davomida o'quvchi yozilgan haqiqatlarga imon keltirib boradi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy. – Toshkent: G'afur G'ulom, 1991.
2. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. 4-jild. – Toshkent:Fan, 1985.
3. To'xliyev. B, Karimov. B. va bq. 11-sinf Adabiyot.(1-qism) – T.: 2018.
4. Erkinov A. Alisher Navoiy "Xamsa"si talqini manbaalari. – T.: Tamaddun. 2018.
5. Mullaxo'jayeva K. Temuriylar davrida yaratilgan "Xamsa"larning komparativistik tadqiqi va ularning Sharq adabiyoti taraqqiyotidagi o'rni. – S.: 2020 .
6. Komilov.N. Xizr chashmasi. – T.: Ma'naviyat. 2005.
7. Komilov N.Tasavvuf. – T.: Movaraunnahr. 2009.
8. Husanboyeva Q, Niyozmetova R. Adabiyot o'qitish metodikasi. – T.: 2018.
9. Haqqulov.I. Taqdir va tafakkur. – T.: "Sharq" 2007.
10. Yo'ldoshev. Q, Yo'ldosheva M. Badiiy tahlil asoslari. – T.: 2016 .

INNOVATIVE
ACADEMY

¹⁷ Haqqulov. I. Taqdir va tafakkur. – T.:Sharq. 2007.296-bet.